HUDUDIY IQTISODIY SALOHIYATNI BAHOLASH ORQALI ELEKTRON TIJORAT TIZIMINI INNOVATSION TAKOMILLASHTIRISH.....	836
Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA FISKAL INSTRUMENTLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING AMALIY JIHATLARI	840
Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich	
CHORVACHILIK TARMOG'INI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA STATISTIK TAHLILNING IQTISODIY AHAMIYATI	846
Husenov Adham Aktamovich	
PAXTA VA G'ALLA MAYDONLARIDA SUV SARFI, HOSILDORLIK, ISHLAB CHIQUVCHI XARAJATLARI VA SOF DAROMAD KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY TAHLILI.....	850
Turgunbayev Utkir Begimovich	
XUSUSIY TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	854
Ibragimov Xamidbek Jumaniyazovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY KORXONALAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	858
Toxirova Nigora Zokirjon qizi	
HUDUDLARDA XIZMATLAR SOHASINING INNOVATSION RIVOJLANISHINI BAHOLASH USULLARI VA XORIJ TAJRIBASI	865
Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich	
RAQAMLI DAVRDA OILAVIY TURIZM: XIZMATLARNI ONLAYN PLATFORMALARDA (BOOKING, AIRBNB) MUVAFFAQIYATLI SOTISH	870
Ozoda Pardayeva	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA SOHAGA XOS METODIKALARNI JORIY ETISH MASALALARI	877
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li	



O‘ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA SOHAGA XOS METODIKALARNI JORIY ETISH MASALALARI

Tulovov Erkinjon To‘liqin o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

E-mail: e.tulovov@tsue.uz

ORCID: 0009-0009-6599-912X

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida qurilish sohasining tutgan o‘rni hamda tarmoqdagi moliya-xo‘jalik jarayonlarini audit qilishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Qurilish tashkilotlarida sohaga xos (tarmoq) audit uslubiyotini yanada takomillashtirish zarurati o‘rganilib, resurs usulida narx shakllanishi hamda “yashirin ishlar” auditining samaradorligini oshirishga qaratilgan muhandislik-iqtisodiy yondashuvlar taklif etilgan. Shuningdek, “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi imkoniyatlaridan auditorlik tekshiruvlarida samarali foydalanish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: qurilish auditi, tarmoq uslubiyoti, resurs usuli, yashirin ishlar, “Shaffof qurilish”, auditorlik riski, muhandislik-iqtisodiy yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируется роль строительной отрасли в современной экономике Узбекистана, а также особенности аудита финансово-хозяйственных процессов в отрасли. Исследуются вопросы дальнейшего совершенствования отраслевой методологии аудита в строительных организациях, предлагаются инженерно-экономические подходы, направленные на повышение эффективности ресурсного ценообразования и аудита «скрытых работ». Также освещаются возможности эффективного использования национальной информационной системы «Прозрачное строительство» в аудиторских проверках.

Ключевые слова: строительный аудит, отраслевая методология, ресурсный метод, скрытые работы, «Прозрачное строительство», аудиторский риск, инженерно-экономический подход.

Abstract. This article analyzes the role of the construction industry in the economy of Uzbekistan and examines the specific features of auditing financial and economic processes in the sector. The study explores opportunities for further improving industry-specific audit methodologies in construction organizations and proposes engineering and economic approaches aimed at enhancing the efficiency of resource-based pricing and the audit of hidden works. In addition, the paper highlights ways to effectively utilize the capabilities of the national information system “Transparent Construction” in audit engagements.

Keywords: construction audit, industry-specific methodology, resource-based method, hidden works, Transparent Construction, audit risk, engineering and economic approach.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida auditorlik faoliyati bozor infratuzilmasining eng muhim institutlaridan biri bo‘lib, investorlar, davlat va boshqa manfaatdor tomonlarni ishonchli moliyaviy ma‘lumotlar bilan ta‘minlashda strategik rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni hamda sohani xalqaro standartlar (XAS/ISA) asosida tartibga solishga o‘tilishi auditorlar zimmasiga katta mas‘uliyat yuklamoqda.

O‘zbekistonda qurilish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi (YIM) ulushi yil sayin ortib borayotgani hamda hududlarda keng ko‘lamli infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirilayotgani ushbu tarmoqda nazorat tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, qurilish sohasining o‘ziga xos professional xususiyatlarini hisobga oluvchi audit usullari va standartlashtirilgan xalqaro protseduralarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qurilish obyektlarining uzoq muddatli amalga oshirish davri, smeta hujjatlarining murakkabligi va yashirin ishlar hajmining salmoqliligi sababli tarmoqdagi risklarni yanada samarali baholashga xizmat qiluvchi maxsus audit yondashuvlariga ehtiyoj mavjud. Sohaga xos (tarmoq) audit usullarini ishlab chiqish auditorlik tekshiruvlarining sifati, samaradorligi va shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Qurilish sohasi o‘zining kapital sig‘imining yuqoriligi, ko‘p bosqichli texnologik jarayonlari va uzoq muddatli loyihalari bilan

moliyaviy nazorat hamda audit nuqtai nazaridan alohida e'tibor talab qiluvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda shaharsozlik faoliyatini modernizatsiya qilish sharoitida auditorlik tekshiruvlarining sifatini oshirish va tarmoqqa ixtisoslashgan metodikalarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi O'RB-673-sonli «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni sohani Xalqaro audit standartlari (XAS) asosida tartibga solishga o'tishning mustahkam huquqiy poydevorini yaratdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 24-fevraldagi PQ-73-sonli «Ko'p kvartirali turar joy majmualarini qurishda kompleks qurilish mexanizmlarini joriy etish va shaffoflikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori tarmoqda narx shakllanishining bazaviy-indeks usulidan zamonaviy resurs usuliga bosqichma-bosqich o'tishini huquqiy jihatdan mustahkamladi. Mazkur qaror auditorlar uchun smeta narxlar va bozor narxlar o'rtasidagi tafovutlarni chuqur tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, shaharsozlikda ochiqlik va shaffoflikni yanada kuchaytirish maqsadida amaliyotga joriy etilgan «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimi (mc.uz) raqamli audit dalillarini shakllantirish va auditorlik tekshiruvlari samaradorligini oshirishning muhim manbalaridan biri sifatida xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston iqtisodiyotida qurilish tarmog'ining ulushi ortib borishi ushbu sohada moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash va auditorlik faoliyatini takomillashtirish masalalarining dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Qurilish tashkilotlari faoliyatining uzoq muddatli shartnomalar, katta hajmdagi kapital qo'yilmalar, murakkab hisob-kitoblar va yuqori darajadagi tavakkalchiliklar bilan tavsiflanishi mazkur sohada auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishning sohaga xos metodikalarini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan auditning nazariy va amaliy jihatlari bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, O.X. Xoliqulov qurilish korxonalarida asosiy vositalar va qurilish texnikalarini hisobga olish hamda audit qilish masalalarini tadqiq etib, audit dalillarini shakllantirish va asosiy vositalar harakatini nazorat qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqqan. Olimning fikricha, qurilish tashkilotlarida audit sifatini oshirish uchun aktivlarni inventarizatsiya qilish va hujjatlashtirilgan nazorat tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [4].

P.Yu. Qarayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda boshqaruv auditining nazariy asoslari, audit samaradorligini oshirish hamda korxonalar faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqib audit metodikasini shakllantirish masalalari yoritilgan. Muallif auditni nafaqat moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini tasdiqlash vositasi, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai sifatida baholaydi. Ushbu yondashuv qurilish korxonalarida riskga asoslangan audit metodikalarini rivojlantirish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi [5].

J.O. Ko'charov ilmiy ishlarida korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish, xalqaro audit standartlarini amaliyotga joriy etish va audit sifatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Tadqiqotlarda moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, auditorlik tekshiruvlari samaradorligini oshirish va xalqaro standartlar talablarini milliy amaliyotga integratsiyalash zarurligi asoslab berilgan. Mazkur ilmiy qarashlar yirik qurilish loyihalarini audit qilishda xalqaro yondashuvlardan foydalanishning muhimligini ko'rsatadi [6].

Sh.K. Primova tomonidan audit tizimini raqamlashtirish, auditorlik faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash hamda xalqaro tajribani milliy audit amaliyotiga moslashtirish masalalari tadqiq qilingan. Muallif auditorlik tekshiruvlari samaradorligini oshirishda elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari va raqamli audit vositalarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvlar qurilish loyihalarida qo'llanilayotgan zamonaviy raqamli texnologiyalarni audit qilish metodikasini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [7].

E.T. Tulovov ilmiy ishlarida qurilish-pudrat ishlarining sifati va ularning o'z vaqtida bajarilishi mazkur tarmoq korxonalarida buxgalteriya hisobi hamda auditni tizimli tashkil etish bilan chambarchas bog'liqligi asoslab berilgan. Muallif qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditni samarali tashkil etishda ularning xususiyatlarini e'tiborga olish, hisob siyosatini izchil qo'llash hamda auditorlik tekshiruvlarini xalqaro standartlar asosida o'tkazish muhim ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvlar qurilish tashkilotlarida hisob va audit tizimini takomillashtirishda xalqaro tajribadan samarali foydalanish muhimligini ko'rsatadi [8].

Xalqaro miqyosda qurilish auditi, loyiha menejmenti va muhandislik-iqtisodiy nazorat yo'nalishida keng ko'lami tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, xorijlik iqtisodchi olimlar R. Flanagan va G. Jeyms o'zlarining ilmiy ishlarida qurilish obyektlarining hayotiy sikl xarajatlari auditi (Life Cycle Costing in Construction) konsepsiyasini asoslab berganlar. Ularning fikricha, qurilish tashkilotlarida audit jarayonlarini loyihalash bosqichidan boshlab tashkil etish va resurs usulida narxlarning o'zgaruvchanligini muntazam monitoring qilish audit samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [9].



Qurilish sohasidagi yashirin ishlar va hajmlarni asossiz oshirib ko'rsatish risklarini boshqarish bo'yicha D. Arditi va A. Patel kabi iqtisodchi olimlar muhandislik va iqtisodiyot kesishmasidagi mantiqiy nazorat modellarini taklif qilganlar. Ular obyekt tarkibida foydalanilgan materiallar hajmini (masalan, beton va metall konstruksiyalar) tekshirishda texnik hujjatlar bilan bir qatorda fizik-matematik proporsiyalarga asoslangan Materiallar balansi testi (Material Balance Test) kabi maxsus tahliliy protseduralarni qo'llash muhimligini asoslab berganlar [10].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) hududida qurilish auditi metodologiyasini shakllantirishga iqtisodchi olimlar N.A. Adamov, V.T. Chaya va P.A. Smirnov salmoqli hissa qo'shganlar. N.A. Adamov o'z tadqiqotlarida qurilishda pudrat shartnomalari auditi va uning o'ziga xos xususiyatlarini tasniflab, smeta hisob-kitoblarining haqiqiylikini baholashda auditor nafaqat buxgalteriya hisobi, balki shaharsozlik normalari va qoidalarini, shuningdek, milliy QMQ standartlarini ham chuqur bilishi zarurligini ta'kidlaydi [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini auditorlik faoliyatining nazariy tamoyillari, xalqaro audit standartlari (XAS), xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) hamda qurilish sohasida auditni tashkil etish bo'yicha ilg'or ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasining auditorlik faoliyati va qurilish sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari, xususan, «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun, qurilish sohasiga oid qarorlar hamda «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik tahlil, hujjatlarni ekspert baholash hamda auditorlik risklarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Qurilish tashkilotlarida auditni amalga oshirishning amaldagi amaliyoti o'rganilib, resurs usulida narx shakllanishi, yashirin ishlar auditi va raqamli audit vositalaridan foydalanish jarayonlari tahlil qilindi.

Shuningdek, qurilish sohasida auditorlik tekshiruvlari samaradorligini oshirish maqsadida muhandislik-iqtisodiy yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, materiallar balansi testi, narxlar monitoringi kross-auditi, texnik hujjatlar va laboratoriya xulosalarini qiyosiy tahlil qilish hamda raqamli platformalar ma'lumotlaridan auditorlik dalillari sifatida foydalanish imkoniyatlari baholandi. Tadqiqot natijalarini shakllantirishda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, qurilish auditi bo'yicha ilg'or tajribalar hamda amaldagi auditorlik amaliyoti natijalaridan foydalanildi.


Tadqiqot yakunida qurilish tashkilotlarida auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishning sohaga xos metodikalarini takomillashtirish, auditorlik risklarini samarali boshqarish hamda raqamli audit vositalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish korxonalarida hisob va auditni tashkil etish masalalariga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda qurilish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, uzoq muddatli shartnomalar hisobi, smeta xarajatlari nazorati, bajarilgan ishlar qiymatini aniqlash hamda loyiha rentabelligini baholash masalalari keng yoritilgan. Tadqiqotchilar qurilish tashkilotlari faoliyatining murakkabligi va ko'p bosqichlilikini inobatga olib, auditning umumiy metodikalari bilan bir qatorda maxsus auditorlik dasturlari va ishchi hujjatlar tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda auditorlik faoliyatining nazariy va metodologik asoslari shakllangan bo'lib, qurilish sohasi uchun maxsus auditorlik metodikalarini yanada rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, jumladan, 15-son MHXS «Mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha tushumlar», 9-son MHXS «Moliyaviy instrumentlar» hamda XAS talablari asosida qurilish tashkilotlari auditini o'tkazishning kompleks metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishlarni kengaytirish zarurati mavjud. Shu sababli qurilish korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishning sohaga xos metodikalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston qurilish sektorida uzoq yillar davomida qo'llanilib kelingan bazaviy-indeks usulidan resurs usuli yordamida narxlarni shakllantirish tizimiga bosqichma-bosqich o'tilishi auditorlik tekshiruvlarining metodologik bazasini yanada takomillashtirishni talab etadi. Zamonaviy audit yondashuvlari resurs usulida narx shakllanishining barcha bosqichlarini chuqur tahlil qilish, bozor ma'lumotlarini baholash hamda iqtisodiy asoslangan xulosalarni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bois resurs usulida narx shakllanishi sharoitida auditorlik tekshiruvlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim nazorat yo'nalishlari va auditorlik risklari shakllanadi (1-rasm).




1-rasm. Resurs usulida narx shakllanishi sharoitida auditorlik tekshiruvlarining asosiy risk yo'nalishlari

Ushbu sharoitda auditorlik tekshiruvlari sifatini yanada oshirish maqsadida “Narxlar monitoringi kross-auditi” uslubiyotini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur uslubiyot doirasida auditor loyiha-smeta hujjatlarida aks ettirilgan resurslar narxlarini Soliq qo‘mitasining elektron hisob-fakturalar bazasi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining joriy narxlar registrlari bilan avtomatlashtirilgan tarzda solishtirishi lozim. Bu yondashuv tannarx ko‘rsatkichlarining iqtisodiy asoslanganligini baholash, audit dalillarining ishonchligini oshirish hamda moliyaviy axborotlarning shaffofligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Qurilish auditining o‘ziga xos yo‘nalishlaridan biri obyekt foydalanishga topshirilgandan so‘ng vizual tekshirish yoki natural o‘lchash imkoniyati cheklangan, ya‘ni keyingi texnologik bosqichlar ostida joylashgan “yashirin ishlar”ni (poydevor ishlari, tuproq ishlari, devor ichidagi gidrozolyatsiya, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va boshqalar) tasdiqlash hisoblanadi.

Mazkur yo‘nalishda auditorlik tekshiruvlarining samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy va muhandislik yondashuvlarini uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda auditor dalolatnomalar, texnik hujjatlar, loyiha-smeta ma‘lumotlari hamda boshqa audit dalillaridan kompleks foydalanish orqali bajarilgan ishlar hajmi va sarflangan resurslarning asoslanganligini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu yondashuv qurilish jarayonlarining shaffofligini ta‘minlash, hujjatlashtirish sifatini oshirish va audit natijalarining ishonchligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur masalalarni samarali hal etish maqsadida quyidagi maxsus auditorlik protseduralari tizimini taklif etamiz (2-rasm).



2-rasm. Qurilish auditida yashirin ishlarni tekshirish bo'yicha maxsus auditorlik protseduralari tizimi



O'zbekistonda ochiqlik va shaffoflikni yanada kuchaytirish maqsadida joriy etilgan "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi (mc.uz) zamonaviy qurilish auditing muhim axborot manbalaridan biri hisoblanadi. Tizimning quyidagi modullari ma'lumotlaridan foydalanish tarmoq auditi samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi:

- **Elektron tender va reytinglar auditi.** Auditor pudrat shartnomalarining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini, ularning dastlabki tender takliflari bilan mosligini hamda g'olib tashkilotning resurs salohiyatini tahlil qiladi.

- **Onlayn nazorat va foto/video yozuvlar.** "Shaffof qurilish" tizimida jamlangan obyektlarning qurilish jarayoniga oid foto va video ma'lumotlar asosida bajarilgan ishlar hajmini masofadan turib baholash imkoniyati yaratiladi. Ushbu ma'lumotlar Forma №2 va Forma №3 hujjatlarida aks ettirilgan ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, audit dalillarining ishonchligi oshiriladi.

- **Materiallarning elektron klassifikatori.** Loyihadagi smeta narxlarini bilan bozor narxlarini o'rtasidagi tafovutlarni baholash hamda soliq organlarining "E-aktiv" tizimi ma'lumotlari bilan o'zaro solishtirish (kross-tekshiruv) auditorlik xulosalarining asoslanganligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston sharoitida qurilish auditing sohasiga xos uslubiyotini rivojlantirish doirasida an'anaviy auditorlik yondashuvlarini raqamli va muhandislik-iqtisodiy audit modellari bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv auditorlik tekshiruvlarining sifati, ishonchligi va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Auditning xalqaro standartlari hamda sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar doirasida raqamli platformalar ("Shaffof qurilish" AT, "E-aktiv") ma'lumotlaridan auditorlik dalili sifatida foydalanishning huquqiy va metodik mexanizmlarini yanada rivojlantirish, qurilish tashkilotlari auditini o'tkazish uchun maxsus raqamli audit testlari paketlari hamda tarmoqqa ixtisoslashgan uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, shuningdek, auditorlik tekshiruvlarida muhandislar va soha mutaxassislari ishtirokini kengaytirish hamda ularning ekspert salohiyatidan samarali foydalanishning huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish tarmoq auditi samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi O'RQ-673-son «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-5286348>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 24-fevraldagi PQ-73-son «Ko'p kvartirali turar joy majmualarini qurishda kompleks qurilish mexanizmlarini joriy etish va shaffoflikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-8071993>
3. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimi ma'lumotlari. – mc.uz.
4. Kholikulov O.Kh. Accounting and Audit of Construction Machinery in Uzbekistan: Its Classification, Condition and Movement // Journal of Contemporary Issues in Business and Government. – 2021. – Vol. 27, No. 5.
5. Karaev P.Y. Formation of Theoretical and Organizational-Methodical Aspects of Management Audit // International Scientific and Practical Conference on "International Experience in Increasing the Effectiveness of Distance Education: Problems and Solutions". – Special Issue. – France, 2022.
6. Ko'charov J.O. Theoretical Foundations of the Financial Condition Analysis and Audit of Enterprises Operating on the Basis of Public-Private Partnership // Eureka Journal of Civil, Architecture and Urban Studies (EJCAUS). – 2026. – Vol. 2, Issue 1.
7. Primova Sh.K. Improving the Audit System in Public Utility Enterprises of Uzbekistan // International Conference on Science, Engineering and Technology: Collection of Scientific Works of the International Scientific Conference. – Hamburg, Germany, 2025. – Issue 4.
8. Tulovov E.T. Qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023.
9. Flanagan R., Jewell C. Whole Life Costing Analysis in the Construction Sector: Methodology and Practice. – London: Wiley-Blackwell, 2018.
10. Flanagan R., Norman G. Risk Management and Construction Pricing Models. – Oxford: Blackwell Scientific Publications, 1993.
11. Arditi D., Chotibhongs R. Issues in Construction Audit, Cost Overruns and Hidden Works Control // Journal of Construction Engineering and Management. – 2005. – Vol. 131, No. 4. – P. 445–454.
12. Patel A., Shah M. Engineering and Accounting Intersection: Material Balance Testing in Infrastructure Audit // International Journal of Project Management. – 2019. – Vol. 37, No. 2. – P. 210–222.
13. Адамов Н.А. Учет, анализ и аудит в строительстве: учебное пособие. – Москва: Инфра-М, 2021.
14. Чая В.Т., Смирнов П.А. Особенности аудиторской проверки инвестиционно-строительной деятельности // Аудиторские ведомости. – 2019. – № 3. – С. 28–36.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100